

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

NURMATOVA UMIDA JALOLIDINOVNA

**MUTOLAA FALSAFIY KATEGORIYA SIFATIDA: ONTOLOGIK VA
GNOSEOLOGIK JIHATLARI**

09.00.01 - Ontologiya, gnoseologiya va mantiq

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Nurmatova Umida Jalolidinovna

Mutolaa falsafiy kategoriya sifatida: ontologik va gnoseologik

jihatlar..... 3

Нурматова Умида Джалолидиновна

Чтение как философская категория: онтологические и гносеологические

аспекты 21

Nurmatova Umida Jalolidinovna

Reading as a philosophical category: ontological and gnoseological aspects 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

NURMATOVA UMIDA JALOLIDINOVNA

**MUTOLAA FALSAFIY KATEGORIYA SIFATIDA: ONTOLOGIK VA
GNOSEOLOGIK JIHATLARI**

09.00.01 - Ontologiya, gnoseologiya va mantiq

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2020.3.PhD/Fal473 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Berdimuratova Alima Karlibayevna
falsafa fanlari doktori, professor

Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2023-yil «___» _____ soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№___-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023- yil «___» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ro'y berayotgan globallashuv jarayonlari, zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti, internetdan axborot va bilim olishning qulayligi, kerakli ma'lumotlarni tez izlab topish imkoniyatlari kengayib borayotgan murakkab bir davrda, ong, tafakkur va keng dunyoqarashga ega bo'lishning muhim ta'sirchan omili bo'lgan mutolaa hodisasi tobora dolzarblashib bormoqda. Pandemiya tufayli dunyo aholisining kitob o'qish ko'rsatkichi ortganligi mutolaaga bo'lgan hayotiy ehtiyojni yanada oshganligini ko'rsatmoqda. Mutolaa hodisasi murakkab jarayon sifatida axborot olish, dunyoqarashni kengaytirish va bilim egallashning muhim vositalaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu ma'noda insonlarda yangi bilimlarni egallashga qiziqishning ortib borayotganligi, inson borlig'ining muhim atributi sifatida mutolaa hodisasining metodologik mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Jahon ilm-fanida tadqiqotchilar tomonidan mutolaa hodisasining klassik, noklassik va innovatsion shakllari, insonni o'z-o'zini anglashi, bilishi va kreativligini shakllantirishdagi ahamiyatiga doir muhim institutsional tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, axborot jamiyatida an'anaviy va elektron mutolaa, mutolaaning ekzistensial va kommunikativ asoslari, mutolaa ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida, kitob metodologiyasi va bilish nazariyasiga oid olib borilayotgan tadqiqotlar muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, insonning ilm egallashi, o'z-o'zini anglashi, dunyoni bilishi va kreativ tafakkurga ega bo'lishini tizimli yo'lga qo'yish, uning ontologik, gnoseologik va sinergetik mohiyatini tadqiq qilish ilmiy jamoatchilik oldidagi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda mutolaa madaniyatini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Aholi o'rtasida, ayniqsa, yoshlar mutolaasi muammosini yuzaga kelish sabablarini mohiyatan o'rganish, tadqiq etish asnosida, ma'rifatni, ma'naviyatni yuksaltirish, intellektuallikni oshirish masalalari dolzarb bo'lib bormoqda. Bilimlilik, ma'rifatlilik, ijodkorlik ko'p jihatdan mutolaa bilan bog'liqdir. "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!"¹. Shu bois, turli yosh toifalarida "Yosh kitobxon", "Yosh kitobxon oila", "Kitobxon mahalla" tanlovlari orqali yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, aholining kitobxonlik ko'nikmasini yanada yuksaltirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, axborot asri bilim egallashga bo'lgan intilishni, mutolaaning yangi zamonaviy usul va vositalarini ilmiy tadqiq qilish ehtiyojini tug'dirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan

¹Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "O'zbekiston" nashriёти, 2021. 24-бет.

sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, shuningdek, 2017-yil 13-sentabrda PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr ettirish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-son "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida", 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 12-maydagi PQ-3721-son "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mutolaa ma'naviy borliqning fenomeni sifatida dastlab qadimgi Xitoy va qadimgi davr mutafakkirlari Konfutsiy, Lao Szi, Suqrot, Platon, Seneka, o'rta asrlarda P.Abelyar, A.Avreley, U.Okkam, I.S.Eriugena va boshqalar tomonidan falsafiy jihatdan talqin etilgan. Uyg'onish va yangi davrda F.Bekon, R.Dikart, T.Gobbs, J.Lokk, D.Yum, M.Monteyn qarashlarida shaxs intellektual rivojlanishining muhim mezon sifatida kitobxonlikning ma'naviy-ahloqiy jihatlari xususida ko'plab fikrlar mavjud. I.Kant mutolaani estetik fenomen sifatida tahlil qilgan.

Sharq falsafasida IX-XIV asrlarda ilmiy-falsafiy bilimlar taraqqiyotida mutolaa, ilm egallash hamda kitobxonlikning inson ma'naviy olamidagi o'rni haqidagi qarashlar Abu Nasr Farobiy¹, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib², Imom G'azzoliy, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlarning asarlarida talqin qilingan.

XVIII asr ma'rifatparvarlik falsafasida Volter, Monteske, D.Didro, P.A.Golbax, G.Lissing asarlarida mutolaa ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazardan talqin etilgan. XX asrda M.Buber, F.Rozensveyg, F.Eberlar muallif va kitobxon o'rtasida vujudga keladigan, matn vositachiligida yuzaga keladigan diaologik munosabatlarni atroflicha tahlil qilganlar. Xorij olimlaridan M.Baxtin, U.Eko³lar tadqiqotlarida o'qishning yaxlit nazariyasi ochib berilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan N.A.Stefanovskaya, A.I.Barsuk, N.A.Rubakin, M.N.Kufayev, M.P.Elnikov, G.V.Pransova, Ye.S.Romanicheva⁴, Yu.P.Melenteva⁵, M.Yu.Gudova, A.S.Kirichek¹larning ilmiy tadqiqotlarida

¹Фаробий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2022, 269-279-бет

²Юсуф Хос Хожиб. Кутадғу билиг (Билим саодати). –Тошкент: "Янги аср авлоди", 2019, 41-58 бет.

³Эко У. Роль читателя. Исследования по семиотике текста. –Москва: Симпозиум: РГГУ, 2007. - С.501.

⁴Пранцова Г.В., Романичева Е.С. Современные стратегии чтения: теория и практика. Смысловое чтение и работа с текстом: учебное пособие. –Москва.: ФОРУМ, 2015. С.368.

⁵Мелентьева Ю.П. Чтение: явление, процесс, деятельность. Москва, 2010. С. 50-56.

mutolaa hodisa, jarayon va faoliyat sifatida umumiy nazariyasi, ijtimoiy va madaniy ahamiyati hamda kitob va matnning o'ziga xos xususiyatlari atroflicha tahlil qilingan.

Mamlakatimizda ushbu tadqiqot mavzusiga yaqin ilmiy izlanishlarni olib borgan olimlar qatoriga Ya.J.Yaxshilikov, N.A.Shermuhamedova, Sh.S.Qushaqov, B.O.To'rayev, O.M.G'aybullayev, V.Alimasov va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Mutolaaning sotsiologik tahlili A.A.Umarov², A.H.Abdulazizovlar ilmiy ishlarida maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganib chiqilgan. S.A.Chiniyeva, D.I.Xudoyqulovlar³ tomonidan mutolaaning pedagogik imkoniyatlari hamda o'zbek oilalarida kitobxonlik an'analari, mutolaa madaniyati orqali yoshlarning axloqiy immunitetini shakllantirish borasida ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Ammo yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida mutolaa kategoriyasi ontologik va gnoseologik yondashuv asosida maxsus tadqiq etilmagan. Aynan ushbu hol mavzumizning ilmiy nuqtayi nazardan dolzarbligini ko'rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur disseratsiya ishi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq CY-01-son "O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning falsafiy asoslari" nomli tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mutolaa jarayonining falsafiy mohiyatini ontologik va gnoseologik yondashuv nuqtayi nazaridan ochib berish.

Tadqiqotning vazifalari:

mutolaa hodisasini chuqurroq o'rganish, uning yuzaga kelishi va inson hayotidagi ahamiyatini tizimli tahlil qilish;

mutolaa jarayonida insonda paydo bo'luvchi bilim, ko'nikma, o'z-o'zini anglash bosqichlarini tadqiq etish;

mutolaa va o'qish madaniyati, atributlari, ijtimoiy funksiyalarini yoritib berish uchun qiyosiy manbalarni tahlil qilish;

mutolaa va kitobning xususiyatlarini taqqoslab chiqish asnosida mutolaa va kitobning mavjudlik xossasini tahlil qilish;

axborotlashgan jamiyatda o'qish madaniyatining antinomik xususiyatlari hamda inson mutolaasining ekzistensial va kommunikativ jihatlarini asoslash;

mutolaaning gnoseologik, ontologik jihatlarini tadqiq etib, uning inson va jamiyat ma'naviy borlig'ini shakllantirishning potensial imkoniyatlari hamda zamonaviy yutuqlari asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mutolaa jarayoni tanlab olingan.

¹Киричек А.С. Культура чтения как предмет познания. Ученые записки Таврического национального университета имени В.И.Вернадского Серия «Проблемы педагогики средней и высшей школы». Том 27 (66). 2014 г. №3. С. 35-46.

²Умаров А.А. Ижтимоий-маданий тараққиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли. Соц-я фанлари доктори илмий дар-ни олиш у-н тай.дис -я. Т., ЎЗМУ, 2005 й.; Абдулазизов А.Х. Академик лицей ва касб-хунар коллежларида мутолаа маданиятини шакллантириш жараёнининг социологик таҳлили. Соц-я фанлари доктори илмий дар-ни олиш у-н тай.дис -я. Т., 2011 й.

³Чиниева С.А. Ўзбек оилаларида китобхонлик воситасида ўсмирлар маънавиятини шакллантириш. Пед.фан.номзоди илмий дар-ни олиш учун тай.дисс-я. Т., 2006 й. 18-бет. Худойқулов Д.И. Ёшларда ахлокий ва эстетик иммунитетни шакллантиришда мутолаа маданиятини конструктив хусусиятлари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд, 2022.

Tadqiqotning predmeti mutolaa kategoriyasining falsafiy mohiyati, gnoseologik muammolari va ontologik masalalarini ilmiy asoslash bilan belgilanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilishning tarixiylik va mantiqiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, hermenevtika, tushunish, sharxlash, kuzatuv, sotsiologik so'rovnoma kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mutolaa tushunchasini gnoseologik voqelik sifatida idrok etish, tushunish, o'z-o'zini anglash kabi ratsional bilishning asosi ekanligi va uning semantik, texnik omillari ongning ko'pqirrali, murakkab faoliyatini aks ettiruvchi jarayonligi asoslangan;

kitob va mutolaa, savodxonlik va bilim o'rtasidagi sinkritik-uyg'unlik, kognitiv assimilyatsiya, mutanosiblik hamda mutolaaning ekzistensial, kommunikativ, pragmatik, aksiologik jihatlari dalillangan;

mutolaa insonni ruhiy holatini tiklovchi, ma'naviy va ma'rifiy hamda intellektual kognitivlikni rivojlantiruvchi, kishida ijodkorlik hissinishakllantiruvchimurakkab hodisa ekanligi bevosita va teskari aloqa tamoyili asosida mantiqiy isbotlangan;

mutolaa hodisasining moddiy va ma'naviy borliqdagi ontologik-mavjudlik xossalari, o'z-o'zini tashkillashtiruvchi, spontan, bifurkatsion, turbulentlikkabisinergetik xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mutolaa jarayoni insonning kognitivlik qobiliyatini takomillashtirishga olib kelishi, xotira va diqqatni oshirish, matn mohiyatini eslab qolish va tushunishning samarali mexanizmlari ilmiy asoslangan;

insonning o'z-o'zini anglashi, intellektual salohiyati (bilim, aql) hamda ma'naviy ruhiy komillik darajasi mutolaa jarayonida takomillashib borishi dalillangan;

mutolaa, savodxonlik va ta'limning antinomik xususiyatlari aniqlanib uning obyektiv, subyektiv omillariga oid yechimlar yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida yangi ma'naviy makon va kreativ tafakkurni shakllantirish, mutolaa madaniyatini yanada takomillashtirishga oid tavsiyalar bayon etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy va ontologik, gnoseologik g'oyalar, xulosalar keyingi tadqiqot va nazariy bilimlarni yangi umumnazariy g'oyalar va falsafiy fikrlar bilan boyitishda, mutolaa (hodisasini) kategoriyasini ilmiy apparatini boyitishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, dissertatsiyada taqdim qilingan taklif va tavsiyalardan maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim muassasalarida, Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida, mahallalarda, axborot resurs markazlarida hamda mavzuga oid fanlarda qo'llaniladigan darslik va o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Mutolaa falsafiy kategoriya sifatida: ontologik va gnoseologik jihatlarini tadqiq etish asnosida:

mutolaa tushunchasini gnoseologik voqelik sifatida idrok etish, tushunish, o'z-o'zini anglash kabi ratsional bilishning asosi ekanligi va uning semantik, texnik omillari ongning ko'pqirrali, murakkab faoliyatini aks ettiruvchi jarayonligi ga oid ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5040-son qaroriga 6-ilova Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" 22-bandi "Buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy-ma'rifiy va madaniy merosini o'rganish yuzasidan fundamental ilmiy-tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish, ularning natijalari asosida ilmiy-ommabop kitob va risolalarni nashrga tayyorlash, chop etish va keng ommaga yetkazish" targ'ibot ishlarida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti 2022 -yil 16-08/223-son ma'lumotnomasi). Natijada aholining, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyatini hamda mutolaaga qiziqishini oshirish va takomillashtirish, kreativ tafakkurini yuksaltirish, bilim darajasini oshishiga xizmat qilgan;

kitob va mutolaa, savodxonlik va bilim o'rtasidagi sinkritik-uyg'unlik, kognitiv assimilyatsiya, mutanosiblik hamda mutolaaning ekzistensial, kommunikativ, pragmatik, aksiologik jihatlariga oid ilmiy yangilik hamda taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetining 2018-2020-yillarga mo'jallangan "O'zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi" (Harakatlar strategiyasi asosida) mavzusidagi PZ-20170928696 raqamli amaliy grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining 2022-yil 28-iyuldagi 04/11-4376-son ma'lumotnomasi). Natijada ilmiy-tadqiqot loyihasini yanada takomillashtirishga va keng aholi o'rtasida mutolaa ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qilgan;

mutolaa insonni ruhiy holatini tiklovchi, ma'naviy va ma'rifiy hamda intellektual kognitivlikni rivojlantiruvchi, kishida ijodkorlik hissini shakllantiruvchi murakkab hodisa ekanligiga oid ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Samarqand viloyat boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan "Zukko kitobxon", "Yosh kitobxon", "Yosh kitobxon oila" tanlovlari chora-tadbirlari loyihasini ishlab chiqishda hamda yoshlarni kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirish maqsadida 2022-yil mart-aprel oylarida o'tkazilgan "Kitobxonlik haftaligi" tadbir dasturi loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Samarqand viloyati boshqarmasining 2022-yil 25-iyuldagi 02-09/499-son

ma'lumotnomasi). Natijada, kitobxonlik faoliyatini qiyosiy o'rganish hamda yoshlarda faol kitobxonlik pozitsiyasini kuchaytirish, kitobxonlik madaniyatini shakllanishiga xizmat qilgan;

mutolaa hodisasining moddiy va ma'naviy borliqdagi ontologik-mavjudlik xossalari, o'z-o'zini tashkillashtiruvchi, spontan, bifurkatsion, turbulentlik kabi sinergetik xususiyatlariga oid taklif-tavsiyalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil efirga uzatilgan "Assalom Samarqand" dasturissenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zMTRK Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 25-avgustdagi 01-12/303-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rsatuv dasturi ssenariysini mazmunan boyitishga hamda mutolaa natijasida ong va tafakkurning shakllanishi, inson erkin fikrlashi, ijod qilish qobiliyatiga ega bo'lishi, o'z-o'zini takomillashtirishida muhim intellektual faoliyat ekanligini keng jamoatchilikka yetkazishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta (5 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 123 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi va ilmiy yangiligi asoslangan, ilmiy ishning mamlakatimiz fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obyekti, predmeti, o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari belgilangan, izlanishlar jarayonida olingan natijalarning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatyasi, nashr etilgan ishlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Mutolaa" tushunchasining tarixiy-falsafiy va umumnazariy asoslari** deb nomlangan birinchi bobi uch paragrafdan iborat. Mazkur bobning **"Mutolaa va kitobning o'zaro mutanosibligi"** deb nomlangan birinchi paragrafida mutolaa kategoriyasi va kitobning mavjudlik qonuniyatlari, falsafiy talqini, o'zaro mutanosibligi asoslanib ularga tadqiqotchining izohi, munosabati va ta'riflari keltirilgan.

Mutolaa hodisasi murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Mutolaaning murakkabligi nimada, birinchidan, mutolaa hissiy bilish jarayoni, ikkinchidan, voqelikning bilvosita aks etishidir. Mutolaa oddiy harakat emas, chunki, diqqat, idrok, xotira va tafakkur kabi psixologik funksiyalardan iborat murakkab faoliyatdir.

Ontologik ma'noda mutolaa – makon va zamonda mavjud narsa va hodisalarning mohiyatini anglash imkonini beruvchi, ma'naviy ekzistensial borlig'ini shakllantiruvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi faoliyat turidir. Mutolaa va kitob o'zaro mutanosib tarzda bir-birini to'ldirib, biri ikkinchisini taqozo qiladi. Kitob axborot jamiyatida mavjudlik shakllaridan biri hisoblanadi. Uning mavjudlik usulidan tashqarida kitob mavjud bo'lishi mumkin emas. Kitob borliqda mavjudligiga ko'ra, inson ongining mahsulidir. Unda inson bilimi, ongi-tafakkurining moddiylashgan asoslari jamlanadi. Mutolaa va kitobni ontologik ajratish borliqning mavjudlik usullariga ko'ra tahlil qilinsa, borliqning olti usuli: ekzistensiya, birgalikda mavjudlik, qo'l ostidalik, hozirlik, hayot va barqarorlik (Хайдеггер)dan, “birgalikda mavjudlik” usuliga ko'proq taaluqlidir. Ya'ni mutolaa va kitob “birgalikda mavjuddir”, kitob yaratilibdiki, uni mutolaa qilish mavjud. Bu yerda bu ikki tushunchaning substansional muammosi ham dolzarb bo'ladi. Muallif fikricha, mutolaa – bu ko'p qirrali jarayon bo'lib, diqqat bilan o'qish, yozma matnni idrok etish va tushunishga qaratilgan ratsional bilish qobiliyati, ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi kommunikativ va onto – gnoseologik faoliyat turidir- degan ta'rifni beradi.

Mutolaa jarayonida kitoblardan biz o'zligimizni, dunyoni, olam va odam munosabatini bilib olamiz. Ontologik ma'noda kitob – tabiatning bir bo'lagi, u mavjud, ya'ni “kitob olami” (diniy, ilmiy, badiiy, darslik, metodika), “kutubxona” (elektron, katrografiya, bibliografiya) “kitoblar do'koni” (biznes) sifatida reallikka (sohalarga) aylangan. Kitob bu inson tafakkurining mahsuli, so'z, til va nutq yordamida inson ma'naviy borlig'ining imkoniyatlarini namoyon qiluvchi murakkab hodisadir. Dissertant, Kitob – inson ma'naviy borlig'ining makon va zamondagi substansional asosi bo'lib, bilim va axborotlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, ma'naviy va axloqiy qarashlarni shakllantiruvchi hamda rivojlantiruvchi taraqqiyot vositasidir- degan ta'rifni beradi. Oddiy ong darajasida kitob – bu moddiy madaniyat hamda jamiyat ma'naviy hayoti mahsulidir.

Dissertatsiyaning ikkinchi paragrafi **“Mutolaa haqidagi tarixiy-falsafiy qarashlar evolyutsiyasi”** deb nomlangan bo'lib, ushbu paragrafda mutolaa jarayoni uning inson hayotidagi munosib o'rni to'g'risida faylasuflarning fikrlari tahlil qilinib, jamiyat taraqqiyotida mutolaa ma'naviy qadriyatlarning asosiy mezon sifatida tadqiq etilgan.

I.Kant mutolaa hodisasining mohiyatini inson borlig'i (o'z-o'zini tarbiyalash, madaniyatini yuksaltirish)ning asosi sifatida talqin etadi. I.Kant: “Kitobxon birgalikda o'qish jarayonida zaruriy elementni ko'rib, kitobxonni o'qish markaziga qo'yadi. Kitobxon o'qiyotganda dunyoni aks ettirmaydi, balki uni yaratadi”,¹- deydi. Yangi asr falsafasida D.Lokk ta'limotida mutolaa kategoriyasi ongni takomillashtirish vositasi sifatida talqin qilinib, kitob turli g'oyalar, qarashlarni aks ettirish va talqin qilish obyekti bo'lgan ilmiy faoliyat hisoblanadi. D.Lokk ham R.Dekart kabi mutolaa shaxsning aqliy darajasini yuksaltirish vositasi ekanligini

¹Мелентьева Ю.П. Эволюция представлений о сущности чтения// Региональные проблемы истории книжного дела: Материалы II Всероссийской научной конференции. –Челябинск, 2011.-С.36.

e'tirof etgan. Uyg'onish davri odami uchun mutolaa, avvalo, bilish vositasi, shaxsiy salohiyatni ochib berish vositasiga aylanadi. Bu davr mutafakkirlaridan M.Monten ta'limotida mutolaaga katta e'tibor qaratilganligini ko'rish mumkin. Holbuki, M.Monten mutolaa jarayonida voqealar rivojini bilish emas, eng muhimi insonning ichki ma'naviy dunyosini, ruhiyatini bilish zarurligini alohida ta'kidlaydi. Umuman olganda, inson erkinlik prinsipiga ega shu bois, o'zining ma'naviy olamini va hayot tarzini o'zi yaratadi bu esa bilish, o'z-o'zini anglash natijasida shakllanib boradi. Boshqa davrlardan farqli o'laroq, mutolaa nafaqat dunyoni aks ettirish va fikrlashning shakli, balki uni o'zgartirishga faol yondoshishdir. "Bugungi kunda respublikamizning barcha hududlarida kitobxonlik kunlari, oliy ta'lim muassasalarida romanshunoslik badiiy oqshomlari, mahallalarda katta-kichik kutubxonalar tashkil qilindi. Kitob mutolaasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi tanqidiy fikrlovchi, yangi tashabbus va g'oyalar bilan O'zbekistonning tiklanishdan yuksalish sari barqaror taraqqiyotini ta'minlashga munosib hissa qo'shishga tayyor yoshlar tarbiyasini nazarda tutadi"¹.

Mazkur bobning uchinchi paragrafi **"Mutolaa inson savodxonligining muhim atributi sifatida"** deb nomlangan bo'lib, mutolaaning muhim atributi sifatida savodxonlik tushunchasi, turli bosqichlari hamda savodxonlikning til bilan o'zaro dialektik aloqadorlikda mavjudligi tahlil etilgan.

Savodxonlik va mutolaa har bir tarixiy davrda o'z davrining dolzarb muammolaridan hisoblangan. Tadqiqotda savodxonlik to'g'risidagi fikrlar ham makon va zamon nuqtayi nazardan tahlil qilinib, dunyoviy talqinda bu-o'qimishlilik, diniy talqinda kishida imon mavjudligidir, deb izohlangan. Chunki qo'lga kitob olish kishida imon mavjudligidan dalolat ekanligiga asoslanib tushuntirilgan. Jadidchilar faoliyatida har bir shaxsni savodli qilish, el-yurt manfaati yo'lida Mahmudxo'ja Behbudiy o'z sarmoyasi evaziga katta mashaqqatlar bilan Samarqandda "Behbudiya" kutubxonasi faoliyatini yo'lga qo'yadi hamda kitobxonlar uchun kitoblar bilan ishlash imkoniyatini yaratadi. Chunki mutolaa va savodxonlikni rivojlantirishning asosiy negizi kitobxonlik bilan bog'liq.

Dissertatsiyada, savodxonlik va mutolaa inson ma'naviy borlig'ining mavjudligini, bir butunligini muhim mezon sifatida e'tirof etiladi. Muallif fikricha, savodxonlik til bilan o'zaro aloqadorlikda shakllanadi. Chunki, til tafakkurning ifoda shakli sifatida inson ongi shakllanishiga ta'sir etib, bilish qobiliyatini namoyon etadi. Buning boisi, har qanday fan yoki amaliyotdagi bilimlarni egallash va ularni boshqalarga to'g'ri hamda tushunarli qilib berish uchun ma'lum qoidalarga solingan tilni mukammal bilishi shart ekanligidadir. Shu bilan birga, mutolaa va savodxonlik inson ma'naviy olamining asosi sifatida bir-biri bilan aloqadorlikda shakllanadi va rivojlanadi. Savodxonlik aholi madaniy saviyasi ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, oddiy matnlarni o'qiy olish yoki ularni o'qish va yoza olish ko'nikmasiga egalik. Mutolaa esa insonga bilim va axborot beradi va uning ma'naviy olamini boyitadi. Savodxonlik va mutolaa jarayoni,

¹Шермухамедова Н.А. Янгиланаётган Ўзбекистонда узлуксиз таълим ва тарбия мутаносиблигини таъминлаш омиллари. "Хозирги замон фалсафаси: ҳолати ва тараққиётининг истикболлари" мавзусидаги республика илмий масофавий онлайн конференция материаллари. 2021 йил 15-апрель, 20-бет.

inson ma'naviyatining yuksalishi har tomonlama kitob bilan chambarchas bog'lanadi. Masala mantiqan kitobxonlikka, kitob o'qishga borib taqaladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Mutolaa hodisasining gnoseologik jihatlarini”** deb nomlanadi. Bobning birinchi paragrafi **“Mutolaa, savodxonlik va ta'limning antinomik xususiyatlari”** deb nomlanib axborot jamiyatining tezlik bilan rivojlanishi aholining mutolaa qilish darajasiga sezilarli tarzda o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi tahlil qilingan.

Tadqiqotda, bugungi kunda aholining, ayniqsa, yoshlarning ongu-tafakkurining yuksalishiga, savodxonlik, kitob mutolaasi va ta'lim-tarbiyasiga zid bo'lgan: uyali aloqa vositalari, mobil o'yinlar, ijtimoiy tarmoqlar, internetga tobeklik kabi antinomik xususiyatlar tahlil qilinib, uning salbiy oqibatlari, xususan, o'zlikni yo'qotish, real hayotdagi “men”idan ayrilishi, fikrlash faoliyatining susayishi, sog'lom tafakkur tarzini yo'qotishi hayotiy dalillar bilan asoslangan. Shu bilan birga, hozirgi axborotlashgan jamiyatda mutolaa, savodxonlik va ta'limning izchilligini ta'minlashda yuzaga kelayotgan muammolarning o'ziga xos obyektiv va subyektiv omillarini ko'rsatib o'tish mumkin. Bunga sabab, bir tomondan, axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi, internetning hayotimizga tobora chuqurroq kirib borishi, elektron matnlar, audio kitoblar, globallashtiruv, axborot makonida ma'lumotlarning nihoyatda ko'pligi, yangi nashrdan chiqayotgan kitoblarning qimmatligi, bozor iqtisodiyotining ta'siri bo'lsa, ikkinchi tomondan, kitob o'qishga qiziqmaslik, sayoz badiiy tafakkurli kitoblar yaratilishi va boshqa ko'plab subyektiv omillari mavjuddir. Axborot olish imkoniyatlarining kengayib borishi, aholining ayniqsa, yoshlarning o'zaro qiziqishlariga yoki faoliyatga ega shaxslar bilan muloqot qurishga, kitob o'qishga, ta'lim-tarbiya tizimiga salbiy ta'sirini ko'rsatayotganligini ta'kidlaydi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi **“Mutolaa gnoseologiyasi va uning funktsionalligi”** deb nomlanib, unda bilish va bilim tushunchalarining qiyosiy tahlili va mutolaaning gnoseologik jihatlarini tadqiq etilgan.

Bilish tafakkur va iroda mahsuli, murakkab hamda jiddiy faoliyat sifatida e'tirof etilsa, mutolaa bilish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

Dissertant, har qanday faoliyat zamirida shuningdek, kitobxon faoliyatida ham birinchi o'rinda ehtiyoj yotishini e'tirof etadi. Bilishga ehtiyoj, inson ma'naviy olami shakllanishida fundamental ahamiyat kasb etadi. Bundan ma'lumki, matn orqasida haqqoniy, obyektiv olam tushunchasi turibdi, inson uni mutolaa jarayonida egallaydi. Muallif tomonidan, mutolaa jarayonining hosil bo'lishi insonning ichki olami, hissiyotlari orqali yuzaga kelish bosqichlari ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, mutolaa - bu insonning ichki hissiy olamida yuzaga keladi, ya'ni, ehtiyoj, ko'rish, anglash, bilish orqali hosil bo'ladi. Bilish jarayoni natijasida olingan bilim obyektiv borliqdagi turli-tuman bog'lanishlar va munosabatlarni tushuncha, qonun, tamoyil, nazariyalar sifatida aks ettiradi. Bilish faoliyatida insonning ichki dunyosi birinchi o'rinda turadi. Mutolaa jarayonida kitobxonning ma'naviy dunyosi yangi taassurotlar bilan boyiydi. Bu taassurotlar kitobxonning his-tuyg'ulari, bilimlari bilan o'zaro ta'sirga kirishib, dunyo haqidagi timsollar, manzaralar, g'oyalarning unikal qorishmasini shakllantiradi. Mutolaa jarayonida

kitobxon tasavvurida kitobdan olinayotgan bilim va taassurotlar natijasida analogiyalar, xayollar, orzular, g'oyalar shakllanadi.

Mutolaa murakkab ruhiy jarayon bo'lib, kognitiv tizim sifatida quyidagi jarayonlarni mujassamlashtiradi:

- mutolaa bilish va muloqot shakli sifatida;
- o'qib tushunish, mohiyatini anglash;
- ong va tafakkurning shakllanishi. Bu jarayonda ong mutolaa qiluvchiga o'zini analiz qilishga va xulosa chiqarishga yordam beradi;
- mustaqil va tanqidiy fikrlash;
- mutolaa jarayonida matnni idrok qilish va qayta ishlash;
- diqqat bilan o'qish va xotirada mustahkamlash;
- amalda isbotlangan, mantiqiy asoslangan ma'lumotlar asosida bilimga ega bo'lish va voqelikni umumlashtirish;
- sog'lom fikr va erkin dunyoqarash asosida qarorlar qabul qila olish.

Ushbu omillar tafakkurda namoyon bo'ladigan bilish qobiliyati bo'lib intellektual faoliyatga xos bo'lgan kognitiv jarayonlardir. "Kognitiv jarayonlar – bu biz yangi bilimlarni egallab, savollarga javoblar oladigan, qarorlar qabul qila oladigan intellektual jarayonlardir. Bu jarayonlar turli bilish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi: idrok, diqqat, xotira, tafakkur va boshqalar. Bularning barchasi bilim olish va atrofimizdagi dunyoni tushunishga yordam beradi, fikrlash tarzini hosil bo'lishiga olib keladi – bu esa kognitiv vazifalardir. Demak, tafakkur tarzi ham kognitiv jarayonning bir elementi, yoki jabhasidir"¹.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi uchinchi paragrafi **“Kitob va mutolaaning gnoseologik muammolari va zamonaviy talablari”** deb nomlangan bo'lib, kitob mutolaasining falsafiy-gnoseologik mohiyati, matnni tushunish jarayoni va mavjudligi mantiqiy asoslangan.

Kitob mutolaasi falsafiy-gnoseologik mohiyatiga ko'ra ikki jihati mavjud: birinchidan, u insonning axborot ehtiyojini qondirishga qaratilgan intellektual faoliyat turi, ikkinchidan, falsafiy gnoseologik mohiyatga ega bo'lib, insonda strategik hayotiy maqsadni, idealni shakllantirish funksiyasini bajaradi. Birinchisida axborot madaniyati- mutolaa madaniyatining muhim belgilaridan biri. Ikkinchisida, falsafiy gnoseologik mohiyatiga ko'ra kitob-insonni fikrlashga undaydi, yuksak darajaga erishishiga, ma'naviy kamolotiga yordam beradi. Shu joyda faylasuf Deni Didroning "Odamlar kitob o'qimay qo'ysalar fikrlashdan to'xtaydilar",- degan so'zlarini eslash o'rinli. Ko'pchilik, inson kitob o'qimasdan ham fikrlay oladi-ku deyishadi. To'g'ri inson kundalik bilish, tafakkur doirasida fikrlaydi, ammo, nazariy-ilmiy darajada fikrlay olmaydi. Qolaversa, kitob mutolaasi intellektual faoliyatning bir ko'rinishi hisoblanadi. Intellektual faoliyat esa falsafiy gnoseologik jihatdan kitob mutolaasini alohida ma'naviy voqelikka, fenomenga aylantiradi. Kitob mutolaasi alohida voqelik, fenomen sifatida quyidagi farqlarda namoyon bo'ladi: bunda, kitobni mutolaa qilish bilan kitob o'qish o'rtasida farq bor. Birinchisi, intensiv bo'lib chuqurlashishni yoqtiradi ya'ni

¹Султонова Г.С. Когнитив конструктивизм тафаккур тарзи креативлигининг интеллектуал асоси сифатида. Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Самарқанд, 2021. 15-бет.

maqsadli mutolaa – bilim va mutolaaning cheksizligini tan oladi, Suqrot ta'kidlaginidek: “Bilmasligimni bildim”,-deydi. Ikkinchisi, ekstensiv ya'ni ommaviy hodisa sifatida kitobni ermak uchun o'qish – bunda yengil-yelpi, yuzaki bilish ustuvor. “Kitob mutolaasiga o'rgatish intensiv bilishga o'rgatish orqali bo'lsa,ilmiy tafakkuriy natija bo'ladi”¹. Shu bois, bugungi kunda kitob o'qishning eng faol turi bo'lgan sintopik(qiyosiy tahlil) o'qish² eng murakkab va tizimli shakli bo'lib, o'quvchini tahlil qilish, kreativ tafakkurga undovchi eng mahsuldor o'qish darajasi hisoblanmoqda.

Tadqiqotda, kitobning mohiyatini anglash uchun matnni tushunish(idrok etish) zarurligi, uning samaradorlik jarayoni mutolaa texnologiyasiga o'zaro bog'liqligi tahlil etilgan. Muallif bugungi globallashuv davridan kelib chiqib, kitob mutolaa qilish shakllari (an'anaviy mutolaa, elektron mutolaa, surdo mutolaa, tiflo mutolaa), strukturasi orqali mutolaaning falsafiy-gnoseologik tomonlarini ochib beradi.

Mutolaa gnoseologiyasi shaxsning kognitiv qobiliyatini rivojlantirishda, ma'naviy-ma'rifiy kamolotida muhim rol o'ynaydi.

Mutolaaning gnoseologik jihatlari:

- matnni tushunish, mohiyatini anglash va ma'nosini aytib berish;
- matnni tahlil etish va umumlashtirish;
- matndagi axborotni izohlay olish, zarur ma'lumotlarni ajratib olish va hayotda qo'llash;
- mutolaa jarayonida olingan ma'lumotlarni analiz va sintez qilish;
- o'z g'oyalarini ilgari surish, to'g'ri xulosalar chiqarish va qaror qabul qilish;
- matnning mohiyatini eslab qolish, faktlarni aniqlash va takrorlash;
- mutolaa jarayonida bilish qobiliyati natijasida o'zini, o'zligini anglash va boshqalar.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Mutolaa ontologiyasi va sinergetikasi**” deb nomlanadi. Mazkur bobning birinchi paragrafi “**Mutolaaning ontologik asoslari va zamonaviy imkoniyatlari**” deb nomlanib inson mutolaasining ekzistensial asoslari va kommunikativ jihatlari tahlil etilib, mutolaa hodisasining funksiyalari hamda ularning ahamiyati izohlab berilgan.

Mutolaaning ekzistensial asoslari J.P.Sartr falsafasida inson mutolaasi dunyoni anglashning ma'naviy erkinlik, ishonch, mas'uliyat kabi asosiy ekzistensial tamoyillariga tayanadi. U.Eko “Kitoblar o'quvchi shaxsining individualligi bilan qayta tiklanmaguncha o'likdir”, “Har bir yangi o'qish yangi matn yaratadi”³ - deb ta'kidlaydi. Qolaversa, inson kitob mutolaa qilish jarayonining ekzistensial asoslarini hosil qiluvchi xususiyat kommunikativlik bo'lib, u “muallif–matn–kitobxon” tuzilishi doirasidagi aloqalarda namoyon bo'ladi. Kitobxonning vakolatlari muallifning ongi bilan muloqot yoki dialogiklikni o'z ichiga oladi.

¹АлимасовВ. Китоб мутоалаасининг фалсафий-гносеологик ва информацион моҳияти. “Ёшларда китобхонлик тафаккурини шакллантиришда ижтимоий-гуманитар фанларнинг ўрни ва долзарблиги”. Халқаро илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами. – Қарши, 2021. 5-6-бет.

²Adler Mortimer, Doren Charlz Van. Kitoblar qanday o'qiladi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. 414-450-bet.

³Эко У. Роль читателя. – М.: Изд-во Рос. гос.гуманит. ун-та, 2005. –495 с.

Ekzistensial mutolaa shaxs ma'naviy borlig'ining asosini, intellektual rivojlanishini nazarda tutadi hamda dunyoni anglashning erkinlik, o'z "men"ining shakllanishi, ishonch, ma'suliyat va boshqa ontologik asoslarni tashkil etadi.

Mutolaaning ontologik jihatlar:

- mutolaa jarayonida mavjud moddiy va ma'naviy borliq uning tabiati va mohiyati to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish;

- tabiat, jamiyat va inson ma'naviy borlig'ida yuzaga keladigan hodisa va jarayonlarning mohiyatini tushunish;

- mutolaa jarayonida shaxsning chuqur ekzistensial "men"ining namoyon bo'lishi;

- kitobxon va muallifning muloqot qilish jarayoni ya'ni kommunikativ funksiyasida erkinlikning mavjudligi;

- mutolaa jarayonida erkin fikrlash va erkin ijod qilish, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish natijasida o'z-o'zini tashkillashtirishga erishish.

Mutolaa jarayoni o'z tabiatiga ko'ra insonning chuqur ekzistensial xislatlarini namoyon qiladi. Dastlab chinakam mutolaa tabiatiga xos bo'lgan ijtimoiy ekzistensial "men"ining shakllanishiga olib keladi. Mutolaaning mohiyati uning sohibi o'zini-o'zi tashkillashtiruvchi murakkab ijtimoiy tizimning atributiv xossasidir.

